



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

ALLYUZIV NOMLAR BAZASINI SEMANTIK MAYDON ASOSIDA MODELLASHTIRISH SEMANTIC FIELD-BASED MODELING OF AN ALLUSIVE NAMES DATABASE

O'rinova Zarifa Jumanazar qizi

Tayanch Doktorant (Phd)

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

E-mail: zarifaorinova@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./SSWV4306](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./SSWV4306)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada allyuziv nomlar bazasini semantik maydon asosida modellashtirish masalasi ko'rib chiqildi. Allyuziv nomlarni tizimli ravishda jamlash, ularning ma'no qatlamlarini aniqlash va semantik maydon prinsipi asosida strukturaviy modelini ishlab chiqish intertekstual tezaurus uchun muhim bosqich ekanligi izohlendi. Maqolada semantik maydon nazariyasi va tezaurus yondashuvi integratsiyasi asosida allyuziv nomlar bazasining ko'p pog'onali modeli taklif etilib, semantik maydon nazariyasi va tezaurus yondashuvi integratsiyasi asosida allyuziv nomlar bazasining ko'p pog'onali modeli taklif etildi.*

Kalit so'z: *Semantik maydon, allyuziya, allyuziv nom, tezaurus, intertekstual tezaurus, diniy allyuziyalar semantik maydoni.*

Annotation. *This article examines the issue of modeling a database of allusive names based on the semantic field framework. It explains that the systematic compilation of allusive names, the identification of their semantic layers, and the development of a structural model grounded in the principles of semantic field theory constitute an essential stage in the formation of an intertextual thesaurus. Within the study, a multi-level model of an allusive names database is proposed through the integration of semantic field theory and the thesaurus approach.*

Keywords: *semantic field, allusion, allusive name, thesaurus, intertextual thesaurus, semantic field of religious allusions.*

Jahon tilshunosligida XX asr oxirida faol o'rganila boshlangan allyuziya hodisasi, hozirgi kunda o'zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligida ham tadqiqotchilar tomonidan chuqur tahlil qilinmoqda. Biz ham allyuziyaning bir ko'rinishi bo'lgan allyuziv nomlarni intertekstual tezaurusda asosiy baza sifatida tadqiq qilamiz. Allyuziyani intertekstual tezaurusga joylashga moslashtirish uchun esa semantik maydonlarga birlashtirish lozim.

Tezaurus tipidagi lug‘atlarni modellashtirish talabi ham birliklarni semantik guruhlar asosida taqdim etish ekanligini [Осокина С.А. 2015] hisobga olib, allyuziv nomlarni o‘zbek intertekstual tezaurusini modellashtirish jarayonida semantik maydon [Искандарова Ш.М.1999] yondashuvi metodologik jihatdan eng maqbul yo‘l degan xulosaga kelish mumkin. Buning sababi shundaki, allyuziv nomlar an‘anaviy leksik birliklardan farqli ravishda barqaror lug‘aviy ma‘noga emas, balki madaniy, kognitiv va kontekstual omillar orqali faollashadigan ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega bo‘ladi. Masalan,

Odamlar uni «Enshteyn» deb atashardi, o‘z sohasining Enshteyni! Mana, o‘zbekning enshteynlari nima qilib yurishibdi!..» [U.Hamdam. 2024:39]

Bunda “Enshteyn” allyuziv nomi matndan tashqarida leksik birlik sifatida oddiy antroponimni ifodalasa, kontekstda esa birinchi o‘rinda tarixiy shaxsga ishora qilishi, so‘ngra intellekt, daholik, ilmiy yutuq, kashfiyot, fizik-matematik tafakkur kabi semalarni qamrab olgan semantik maydonni ishga tushiradi. Matndan anglashiladiki, tasvirlanayotgan qahramon yuqori intellekt egasi Enshteyn kabi kuchli ilm egasi.

Ushbu semalar turli matnlarda turlicha kombinatsiyada namoyon bo‘lib, aynan shu holat semantik maydon modelining zarurligini ko‘rsatadi. Intertekstual tezaurus yaratish nazariyasida birliklarni kontseptual yaqinlik asosida guruhlash asosiy tamoyil hisoblanadi. Allyuziv nomlar esa aynan kontseptual yaqinlik orqali birlashuvchi birliklar bo‘lib, ularni semantik maydondan tashqarida, izolyatsiyalangan holda berish tezaurusning intertekstual mohiyatini susaytiradi.

Allyuziv nomlarni semantik maydonlarga ajratish jarayonida allyuziv nomlarning mavzu doirasiga ko‘ra tasnifi bilan tanishdik. Tilshunoslikda allyuziv nomlar quyidagi mavzuiy guruhlar [Хомидова М. 2020:41-42] ga ajratilgan:


1. Diniy allyuziyalar
2. Tarixiy allyuziyalar
3. Badiiy allyuziyalar
4. Mifologik allyuziyalar
5. Ijtimoiy-maishiy allyuziyalar

Shundan kelib chiqib biz ham U. Hamdam asarlari asosida yig‘ilgan allyuziyalar bazamizni pragmatik va semantik tahlil qilish asnosida quyidagi semantik maydonlarga birlashtirdik:

- ✓ Diniy allyuziyalar semantik maydoni.
- ✓ Tarixiy allyuziyalar semantik maydoni.
- ✓ Badiiy allyuziyalar semantik maydoni.
- ✓ Aralash allyuziyalar semantik maydoni.

Ta’kidlash lozimki, allyuziyalarni semantik maydonga ajratish asosida tahlil qilish (ayniqsa, allyuziv nomlarni) ularning ko‘p qatlamli semantik tabiatiga mos keladi, intertekstual tezaurusning tizimlilik talabini ta’minlaydi,

ma'no va kontekst o'rtasidagi dinamik aloqani ochib beradi va tezaurusni oddiy nomlar ro'yxatidan kognitiv-semantik model darajasiga ko'taradi. Demak, allyuziyalarni intertekstual tezaurusga semantik maydon asosida joylash uchun, albatta, uning modelini ishlab chiqish kerak. Modelni ishlab chiqishda tilshunos olim B.Suyunovning “Tibbiy terminlar semantikasi va tezaurusi” doktorlik dissertatsiyasida ishlab chiqqan tibbiy terminlarning semantik maydoni modeliga [Суюнов Б. 2023:95] tayandik.



Allyuziyaning semantik maydon modeli

Ushbu model orqali *diniy allyuzalar semantik maydonini* quyidagicha tahlil qildik:

SS — Allyuziya (soha sifatida talqin qilinadi)

SM — Diniy allyuziyalar semantik maydoni

SMM — 1. Mutlaq ilohiy zot semantik mikromaydoni. 2. Payg‘ambarlar semantik mikromaydoni. 3. Farishtalar mikramaydoni. 4. Amaliy ibodat va marosim semantik mikramaydoni. 5. Muqaddas makon semantik mikramaydoni. 6. Muqaddas matn mikramaydoni. 7. Rivoyat va voqea mikramaydoni. 8. Jinlar mikramaydoni.

Ko‘rinib turibdiki, semantik maydonlar yana kichik mikromaydonlarga bo‘linib, intertekstual tezaurusni aniq tizimlashtirib beradi. Biz diniy allyuziyalar semantik maydoniga kiruvchi mikromaydonni allyuzalar bazamizda mavjudlari asosida shakllantirdik. Agar o‘zbek tilining intertekstual tezaurusi umumiy tuziladigan bo‘lsa, mikromaydonlarda o‘zgarish bo‘lishi mumkin.

Model asosida diniy allyuziya semantik maydoniga kiruvchi birlik tahlilini amalga oshiramiz:

Munkar va Nakirning savol-javobini aytaman. Bu hayotda ham o‘lchov shunday bo‘lishi kerak.[U.Hamdam. 2024:540]

Ushbu parchada Munkar va Nakir allyuziv nomlari pretsedent nomga ishora qilib, farishta nomlari hisoblanadi.

SS – Allyuziya

AM – Diniy allyuziya semantik maydoni.

SMM – Farishtalar semantik mikromaydoni.

Munkar va Nakir allyuziv nomining semantik mikromaydonda farishtalar mikramaydoniga kirishining ilmiy asosini esa biz ushbu intertekstual birlikning tezaurusda aks etadigan o‘n uch uzelli tahlili (bu haqida 2.3. -paragrafda to‘xtalganmiz) asosida dalillashimiz mumkin. Ya’ni Intertekstual tezaurusning “Asl manba”, “Semantik maydon”, “Giperonim”, “Giponim” va “Izoh” nomli uzellari allyuziv nom sifatida tahlil qilinayotgan birlikni semantik maydon hamda mikromaydonini aniq ko‘rsatib beradi.

T/R	Element	Tavsif
1	Intertekstual birlik	Munkar
2	Intertekstual birlik sifatidagi kontekst	“ <i>Munkar</i> va Nakirning savol-javobini aytaman. Bu hayotda ham o‘lchov shunday bo‘lishi kerak”. Ulug‘bek Hamdam.To‘rt ko‘cha. T.: Yangi asr avlodi,2024. -B.540.
3	Asl manba	Bu allyuziv nom Qur‘onda yo‘q. Ammo sahih hadislarda uchraydi. Abu Iso at-Termiziyning “Jome‘ at-Termiziy” kitobining 1071-hadisi. “Mayit ko‘milganda (yoki sizlardan biringiz ko‘milganda) uning huzuriga ikki farishta keladi: ularning ranglari qoramtir, ko‘zlari ko‘kimtir bo‘ladi. Ularning birini ismi Munkar, ikkinchisining ismi Nakir. https://sunnah.com/tirmidhi:1071
4	Talaffuz	Munkar
5	Intertekst turi	Pretsedent nom + alluziya
6	Semantik maydon	Diniy allyuziya:farishtalar semantik mikramaydoni
7	Tanilish darajasi	Yadro
8	Kontekstual sharh	Romaninning “To‘rt ko‘cha” nomli oxirgi qismidan. O‘lmasning insonning hayot yo‘li qanday baholanadi deya o‘ziga savol berib, javob



		topishga harakat qilish vaqtidagi o‘y-xayollari
9	Sinonim	Nakir
10	Giperonim	Farishta
11	Giponim	<i>Munkar</i>
12	Izoh/ma’no	Ushbu matnda Munkar real diniy farishta nomi bo‘lib qolmay, axloqiy nazorat, javobgarlik va adolat mezonini ifodalovchi allyuziv nomga aylangan.

Intertekstual tezaurusda yuqoridagi kabi ikki allyuziv nom bitta matnda (Munkar va Nakir ikkita farishta nomi) aks etgan bo‘lsa-da, ularni alohida-alohida tahlili beriladi.

Shunday qilib, allyuziv nomlar intertekstual tezaurusimizda pretsedentlik xususiyatiga ega bo‘lgan lingvomadaniy birliklar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning tezaurusda semantik maydonlarga ajratilib tizimlashtirilishi, badiiy kontekstda anglashiladigan madaniy-tarixiy, diniy, badiiy kabi pragmatik-funksional ma’nolarni tizimli ravishda modellashtirish imkoniyatini beradi. Allyuziv birlikning qaysi semantik maydonga mansubligi uning nominativ xususiyatiga emas, balki badiiy matnda yuzaga chiqadigan semantik ma’nosi, pragmatik vazifasi hamda o‘quvchi kognitiv bazasida faollashadigan intertekstual bilim orqali belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайdonи). Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1999.
2. Ulug‘bek Hamdam. To‘rt ko‘cha. T.:Yangi asr avlodi, 2024. – B. 39.
3. Осокина С.А. Основания лингвистической теории тезауруса. Дисс. ... доктора филол. наук. – Барнаул, 2015. – 437 с.
4. Суюнов Б. Тиббий терминлар семантикаси ва тезауруси. Филол. Фан. Докт. ...дис. – Тошкент, 2023.
5. Хомидова М. Бадий матн персепсиясида интертекстуаллик. Филол.фан. фалс.док...дисс. –Тошкент, 2020. -41-42-б.
6. Dilafruz, M. (2023). “BOBURNOMA” NING ELEKTRON PLATFORMASINI YARATISH–DAVR TALABI. Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабур в развитии восточной государственности и культуры, 1(1).
7. I Orazova [FRAZEMALAR KOGNITIV SEMANTIKANING O‘RGANISH OBYEKTI SIFATIDA](#)
8. Xolmanova, Z. (2025, July). O‘ZBEK SHEVALARI VA TURKIY TILLAR LEKSIKASIDAGI MUSHTARAKLIK. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).